

TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Xakimova Gulchexra, o'qituvchi
TATU Farg'ona filiali akademik litseyi,
O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya: *Ta'lism - davlat, jamiyat, fuqarolar manfaatini ko'zlovchi maqsadga yo'naltirilgan o'quv va tarbiya jarayoni bo'lib, uni ta'lism oluvchilarning davlat ta'lism standartlari va talablari bilan belgilangan natijalariga, yutuqlarga erishishini ta'minlashga qaratilgan jarayon. Ta'lism – avloddan-avlodga insoniyat bilim va tajribalarini uzatish jarayoni, o'qitish va qabul qilishni sintezi, o'qitish maqsadlaridan kelib chiqib, jamiyat rivojlanishidagi uзвиy aloqani olib boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lism, ta'lism samaradorligi, modernizatsiya, innovatsiya, pedagogik qobiliyat.*

Ta'lism sifati - kasbiy anglashning kompleks tavsifi bo'lib, zamonaviy rivojlanish bosqichida iqtisodiy tarqiqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatlil yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanadi.

Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdag'i modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiyl yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo'ladi. Jumladan, ta'lism sohadagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir.

Har bir fan o'zining uzlusiz taraqqiy etib borish bosqichlariga egadir. Fan rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatadigan yangi tarixiy bosqich arafasi odatda keng ko'lamdag'i bahslar, keskin munozaralardan holi bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda ularning xayotga tadbiq etishni ta'minlovchi hukumat qarorlari shaklidagi me'yoriy xujjatlar asosida Respublikamizda uzlusiz ta'lism tizimining poydevori yaratildi. Uzlusiz ta'lismning barcha bo'g'inlarini boshqarish jaxon andozalari va zamon talablari darajasida yo'lga qo'yish, ularning har biri uchun xos bo'lgan xususiyatlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, ta'lism tarbiyaning yangicha tizimini shakllantirish mustaqil o'zbekiston taraqqiyotining negizi sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Ta'lism-tarbiya soxasini isloq qilishning asosiy omillaridan biri-ta'lism-tarbiya jarayonini pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, ta'lism tizimining ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni dars jarayoniga tadbiq etishdan iboratdir.

Ta'lism tizimining modernizatsiyasi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lism olish bo'lgan talabini qondirish, ta'lism tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi

Bugungi pedagogik texnologiya talabalarda tashabbuskorlikni, mustaqillikni, bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirishni, kuzatuvchanlikni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalovchi usullarni qo'llashni talab etadi.

Zamonaviy rivojlanish bosqichida ta'limgizning sifati va samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'naliishi bo'lib, ta'limgiz amaliyotiga ilg'or ta'limgiz texnologiyalarini joriy qilish hisoblanadi. Ta'limgiz texnologiyasi – ta'limgiz berish, texnik, inson resurslari va ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi bo'lib, ta'limgiz shakllarini optimallashtirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Ta'limgiz sifatini ta'minlash – bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rindi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan.

Ta'limgiz jarayonida pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish muhim omildir. Shu sababli zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or o'qituvchilar tayyorlashda ushbu qo'llanmaning ahamiyati katta. Shuningdek, kitobda innovatsion texnologiyalarning shakllanish tarixi, pedagogik integratsiyaning ilmiy asoslari, shaxsga yo'naltirilgan ta'limgiz texnologiyasi, pedagogik jarayonni shakllantirish va samarali boshqarish texnologiyasi hamda rivojlanayotgan ta'limgizning integratsiyasi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'limgiz texnologiyasi va ta'limgiz san'ati texnologiyasini ilmiy-amaliy nuqtai nazardan vizualizatsiya qilish masalalarida ham atroflicha fikr bildirilgan. Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy ta'limgiz texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan pedagog darajasida tayyorlash, ularni o'ziga xos malakaga ega bo'lishga yo'naltirish va bu borada zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish pedagogik faoliyatni amaliyotga joriy etishda yordam beradi.

O'qituvchi ijodiy qobiliyatlarining manbai pedagogik tajribadir. Uning ilg'or tajriba konsepsiyasida o'z vazifasiga ijodiy munosabati o'quvchilarni tarbiyalashda yangi samarali yo'l va vositalarni izlash va ulardan foydalanishida namoyon bo'ladi. O'z sohasining yetuk o'qituvchisi nafaqat bolalarga ta'limgiz-tarbiya berish bilan shug'ullanishi, balki ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini o'rganishi muhim hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar orqali ta'limgiz jarayoniga yangi sifat o'zgarishlari kiritiladi, natijada o'quvchining berilgan mavzuni tushunib olishi va eslab qolishi osonlashadi. Ilg'or pedagogik tajriba shunchaki mehnatning bir ko'rinishi emas, balki kezi kelganda o'qituvchining uslubiga aylanib, u orqali o'qituvchi tarbiya va ta'limgiz jarayonida yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bulishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini u kунтарбиyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

O'quv jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo'llanilishi o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini, shuningdek pedagogga nisbatan hurmatini kuchaytiradi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalar juda qo'l kelishini ta'lim muassasalarida tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilayotgan pedagogik tajribalar natijalari tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar o'z sohalari bo'yicha olib borayotgan mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni o'z o'mida qo'llashni bilishlari o'ta zarur. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda ko'proq samaraga ega bo'lish uchun o'tmish allomalarimizning g'oya va qarashlaridan foydalangan holda innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llash zarur.

Pedagogik texnologiya bo'yicha o'qitishda quyidagilar ta'limning asosiy parametrlari bo'lib hisoblanadi:

- butun o'quv vaziyati boshqaruva ob'ekti sanaladi;
- ta'limni boshkarish maqsadli bo'lib, talabaning mohiyatli, ma'naviy va ruxiy kuchlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi;
- ta'lim jarayoni demokratik, rag'batlantiruvchi uslubda bajariladi;
- ta'lim jarayonining zaruriy sharti talabaning shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchi shaxsining ochiqligi, ularning hamkorligi o'zaro ishonchli munosabatlarni yuzaga keltirishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarning innovatsion metodlari shiddat bilan keng ko'lamda kirib kelmokda. Mazkur usulning eng muhim jihat shundan iboratki, u talabalarni o'zaro hamkor bo'lishga undaydi, faolligini oshiradi, fikrni mustaqil ifodalash, tanqidiy fikr yuritish, tahlil qilish, hulosa chiqarishga o'rgatadi. An'anaviy ta'lim uslublaridan farqli o'laroq, bu usul o'qituvchi bilan talabaning darsda keng, ayrim o'rinnlarda talabaning o'qituvchidan ham faolroq ishtirot etishini taqazo etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xalq ta'limi sohasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu kadrlar tayyorlash mazmunini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Yoshlarimizni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib etishtirish va komil inson qilib

tarbiyalash uchun ularning nutqiy ko'nikma va malakalalarini takomillashtirishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuxamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. Uslubiy ko'rsatma. Toshkent, 2008.
2. Ishmuxamedov R. Innovatsii v obrazovanii i vospitanii. Tashkent, 2009.
3. Zakirova, D. S. (2022). TALABALARDA MILLATLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 439-448.
4. Zakirova, D., & Nishanova, S. (2022). Legal basis for the development of the idea of interethnic harmony and religious tolerance in Uzbekistan. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(6), 125-129.
5. Saidolimovna, Z. D. (2019). THE FORMATION OF INTERETHNIC COMMUNICATION CULTURE OF THE YOUTH: METHODOLOGICAL ANALYSIS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
6. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. ResearchFocus, 1(4), 267-272.
7. Каримова, Г. (2022). МАЪНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. Экономика и социум, (3-2 (94)), 612-615.
8. Сулаймонов, Қ. (2022). ЁШЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МАДАНИЯТИ ШАКЛПАНИШИГА ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАР ТАЪСИРИ. Science and innovation, 1(B3), 688-696.
9. Sulaymonov, K. (2022). THE INFLUENCE OF OBJECTIVE AND SUBJECTIVE FACTORS ON THE FORMATION OF THE INTELLECTUAL CULTURE OF YOUTH. Science and Innovation, 1(3), 688-696.
10. Rasulova, A., & Karimov, U. (2022). Socio-Pedagogical aspects of the formation of reading culture and skills. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(4), 114-118.
11. Каримова, Г. Й. (2021). АХЛОҚ-МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ МАФКУРАВИЙ УСУЛИ СИФАТИДА. Экономика и социум, (6-1 (85)), 707-710.
12. Karimova, G., & Khasanova, D. (2022). Social relations in economic processes in the science of economic sociology. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 273-277.
13. Yuldashev, I. A. (2020). Pedagogical Bases Of Formation Of Social Activity In Pedagogical Sciences. Теория и практика современной науки, (5), 67-69.